# PARRANDA BOQUVCHILAR KO‘P AZIYAT CHEKADIGAN YO‘TAL VA NAFAS YETISHMOVCHILI KASALLIKLARI. KASB KASALLIGI.

***Xo‘jaxonova Moxinur Farxodjon qizi***
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*
*chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining*
*Toshkent filiali magistranti*
***Abbosov Umidjon Maxmudjonovich***
*Vitebsk davlat veterinariya akademiyasi magistranti*
***Eshmatov G‘ayrat Xurram o‘g‘li***
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*
*chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining*
*Toshkent filiali dotsenti*
***Xo‘jaxonov Shoxruxon Idrisxo‘ja o‘g‘li***
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*
*chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining*
*Toshkent filiali v.f.f.d., (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolda parrandachilik xo‘jaliklarida faoliyat yuritadigan ishchi xodimlar ko‘p kasallanadigan yo‘tal va nafas yetishmovchili kasalliklari va klinik belgilari to‘g‘risida ma’lumotlar bayon qilingan.

**Аннотация.** В статье представлена информация о заболеваниях кашля и одышки и их клинических симптомах, которые распространены среди работников птицефабрик.

**Abstract.** This article provides information on cough and shortness of breath diseases and their clinical symptoms, which are common among workers working in poultry farms.

***Kalit so‘zlar.*** Ekzogen, allergic, alveolit, yallig‘lanish, Bronx, traxeya, mog‘or, pichan, Isitma, yo‘tal, nafas yetishmovchiligi, holsizliq, charchoq, mushaklardagi og‘riqlar.

***Ключевые слова.*** Экзогенные, аллергические, альвеолит, воспаления, бронхи, трахеи, плесень, сенная лихорадка, кашель, одышка, слабость, утомляемость, мышечные боли.

***Keywords.*** Exogenous, allergic, alveolitis, inflammation, Bronch, trachea, mold, hay fever, cough, shortness of breath, weakness, fatigue, muscle pain.

**Kirish.** Infeksion kasalliklarning oldini olishda emlash, seroterapiya, dezinfeksiya va karantin keng qo‘llaniladi. Invazion kasalliklarda esa emlash va seroterapiyani qo‘llash amaliyotda keng tarqalmagan. Karantin va ba’zi bir cheklashlar

bir qator antropozoonoz kasalliklarda oʻrnatiladi. Odamlarda uchraydigan ba’zi invazion va infeksion kasalliklar qoʻzgʻatuvchilarining tarqatuvchilari koʻp hollarda hayvonlarda parazitlik qiladi. Shuning uchun hayvonlar tanasidan bunday tarqatuvchilarni yoʻq qilish kasalliklarning oldini olish tadbirlaridan biri hisoblanadi. Binobarin, parazitlarga qarshi olib boriladigan veterinariya tadbirlari nafaqat hayvonlarga, balki odamlarga ham qaratilgandir. Invazion kasalliklarning oldini olishga qaratilgan umumiy chora-tadbirlarga hayvonlarni toʻla qimmatli oziqlantirish, qulay zoogigiyenik shart-sharoitlar yaratish va yaxshisaqlash, kun tartibiga rioya qilish, veterinariya-sanitariya qoidalariga qattiq amal qilish, tabiiy yaylovlarni yaxshilash va sun’iy madaniy yaylovlar tashkil etish, suv ichadigan joylarning gigiyenik holatini yaxshilash, goʻnglarni biologik qayta ishlash, xoʻjaliklardan mollarni olib chiqishda ularni parazitar kasalliklarga tekshirish, xoʻjalikka olib kelinayotgan yangi hayvonlarni tekshirish va karantin joriy etish, zarur holatlarda bunday hayvonlarni emlash va degelmintizatsiya qilish ishlari kiradi. Shunday xastaliklar borki, ularni maxsus diagnostik vositalar, laborator tekshiruvlar va tor soha mutaxassislari koʻmagisiz aniqlash ham, davolash ham mushkul. Chunki namoyon boʻladigan alomatlar boshqa kasalliklar belgilari bilan juda oʻxshash. Kelib chiqish sabablarini ham osongina tusmollash qiyin.

Ekzogen allergik alveolit — shulardan biri. Uni kasb kasalliklari sirasiga kiritish mumkin. Chunki bu darddan koʻproq parrandachilik fabrikalari ishchilari, tovuq va qush boquvchilar koʻproq aziyat chekadi.



**Ushbu kasallik kelib chiqishiga nimalar sababchi bo'lishi mumkin?** Ekzogen allergik alveolit immunitet tizimining allergenlarga reaksiyasi tufayli yuzaga kelib, oʻpka toʻqimalari yalligʻlanishi bilan kechadi. Masalan, mogʻor, pichan, qush va parranda patlari va axlati, qoʻziqorin sporalari, uy, sabzavot va qahva changi, dorilar hamda boshqa kimyoviy va organik moddalar — buning sababchilari. Mazkur allergenlar juda kichik hajmda boʻlgani tufayli bronxlar va traxeyada oʻrnasholmaydi va asosan oʻpka alveolalarida joylashadi.

**Kasallik qanday alomatlar bilan boshlanadi?** Allergik reaksiya chogʻida oʻpka yalligʻlanib, xuddi grippga chalingan bemorlardagi singari nafas siqishi, yoʻtal, quruq balgʻam ajralishi, tana harorati koʻtarilishi kabi holatlar kuzatiladi.

Avvaliga bemor allergen joylashgan hududga kirgach, ahvoli yomonlashishi, toza havoga chiqqandan soʻng esa alomatlar sezilarli darajada kamayishi va 2-3 kun oʻtib butunlay yoʻqolib ketishi ham mumkin.

**Agar ushbu kasallikka e'tibor berilmasa qandar holatlarga olib keladi?** Biroq allergen bilan aloqa muntazam davom etsa, bora-bora xastalik rivojlanib, surunkali shaklga oʻtadi. Oqibatda nafas qisishi va yoʻtal doimiy tusga kiradi. Vaqt oʻtgan sayin bemorning ahvoli ogʻirlashib, horgʻinlik, zaiflik, ishtaha pasayishi, vazn yoʻqotishi, mushaklardagi ogʻriqlar kuchayadi.

Kasallikning surunkali shaklida bemor allergiya qo‘zg‘atuvchi moddalar bilan ro‘baro‘ kelmasa, alomatlar vaqtincha kamayishi mumkin, ammo ular butunlay yo‘qolmaydi.

Shuningdek, bolalarda allergik alveolit kattalarga qaraganda kamroq uchraydi. Ularda ham xastalik qo‘zg‘atuvchisi yuqorida sanalgan organik va kimyoviy moddalar hisoblanadi. Kichik yoshli bemorlarda namoyon bo‘ladigan simptomlar kattalarnikiga o‘xshash, ammo yanada o‘tkir shaklda kechadi.



**Xo‘sh, kasallik qanday aniqlanadi? Davo muolajalari nimalarni o‘z ichiga oladi?** Isitma, yo‘tal, nafas yetishmovchiligi, holsizliq, charchoq, mushaklardagi og‘riqlar. Bu parrandachilik fabrikalari ishchilari, tovuqboqarlar va qush parvarishlovchilarda ko‘proq uchraydigan ekzogen allergik alveolit belgilari bo‘lishi mumkin.

Ammo aholi orasida bu kasallik ko‘p kuzatilmagani va o‘xshash simptomlari bois, tibbiy amaliyotda unga kam hollarda o‘z vaqtida va to‘g‘ri tashxis qo‘yiladi.

**Mutaxassis bemorga qanday tashxis qo‘yishi va muolajalar belgilashi kerak?** Mutaxassis bemorga qator tibbiy tekshiruvlarni buyuradi. Dastavval allergenlarni aniqlashga qaratilgan qon tahlili, ko‘krak qafasi organlarining kompyuter tomografiyasi o‘tkaziladi. Spirometriya, bronkoskopiya, biopsiya natijalari o‘rganiladi.

Agar bemorda allergik alveolit shubha qilinsa, o‘pka hajmi, o‘pka to‘qimalarining kislorod o‘tkazuvchanligi darajasi aniqlanadi. Aniq tashxisdan so‘ng shifokor bemorning holati va tahlillar natijalariga ko‘ra, muolaja kurslarini tayinlaydi.

Agar simptomlar davom etsa, shifokor o‘pka to‘qimalarida yallig‘lanishni bartaraf etish uchun gormonal tabletkalar va antifibrotik dorilarni buyuradi. Tekshiruv chog‘ida bronxlarning torayishi aniqlansa, davolanishga bronxodilatator preparatlar qo‘shiladi.

O‘pkaning jiddiy shikastlanishida esa kislorodli terapiya tayinlanishi mumkin. Xastalikning surunkali shaklida uzoq muddatli muolaja talab etiladi.

Chunki allergen bilan aloqa to‘xtatilgandan keyin ham bemorda simptomlar saqlanib qoladi. Bu esa ko‘pincha o‘pka to‘qimalarida tiklanmas o‘zgarishlarni hosil qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.B.Davlatov, X.S.Salimov, A.N.Xo‘djamshukurov. “Parranda kasalliklari”, o‘quv qo‘llanma, Samarqand-2018.

2

3. B.Bakirov N.B.Ro‘ziqulov va boshqalar “Hayvonlar kasalliklari” (ma’lumotnoma)

4. R.B.Davlatov, Sh.N.Nasimov, X.B.Niyozov, Sh.A.Jabborov Sh.A.Xo‘djamshukurov, X.A.Safarov. “Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo‘yicha tavsiyalar”

## Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhanov, S. I. (2023). Fish branchiomycosis prevention measures. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 247-252.

2. Xo‘jaxonov, S., Xo‘jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(4 Part 2), 75-78.

3. G‘aniyev, S. S., & Xo‘jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O ‘TKAZISH TALABLARI. Scientific Impulse, 1(8), 586-592.

4. Xo‘jaxonov, S., Xo‘jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO ‘JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(5), 77-84.

5. Xo'jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI. Journal of Integrated Education and Research, 2(8), 33-36.

6. Berdiyevich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB CHIQISHI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 10(1), 23-30.

7. Berdiyevich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TASHXIS QO 'YISH USULLARI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 10(1), 3-13.

8. Berdiyevich, D. R. (2023). To Determine the Effectiveness of Antibiotics in Preventing Chicken Colibacteriosis Based on Experiments. European Journal of Agricultural and Rural Education, 4(1), 8-9.

9. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures for the prevention of diseases caused by disorders of bee nutrition and feeding conditions. Academicia Globe, 3(03), 5-8.

10. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Вестник Ветеринарии и Животноводства, 1(1).

11. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helmintosis diseases of one-hoied animals. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 880-883.

12. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Enrovit-O при химической профилактике колибактериоза цыплят.

13. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON–ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 32-39.

14. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. Ученый XXI века, (10 (81)), 12-14.

15. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 107-111.

16. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia"," necrotic hepatitis").

17. Berdiyevich, D. R. (2023). To Determine the Effectiveness of Antibiotics in Preventing Chicken Colibacteriosis Based on Experiments. European Journal of Agricultural and Rural Education, 4(1), 8-9.

18. Nurmamatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 615-617.

19. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.

20. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. Интернаука, (8-3), 44-46.

21. Qizi, A. S. A., & Qizi, O. J. B. (2026). ASALARILARNING VIRUSLI KASALLIKLARI. Ustozlar uchun, 89(1), 82-90.

22. Iskandar o‘g‘li, Q. A., & Razzoq Norbo‘ta o‘g, E. (2026). PARRANDALARNING CHECHAK KASALLIGIGA DIAGNOZ QO ‘YISH. TIMALGAN TOJGA VA PAR FOLLIKULALARIGA TAJRIBA UCHUN YUQTIRISH USULINI O'RGANISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 62(1), 347-357.

23. Erkinjon o‘g‘li, S. J. (2026). GATR-REAKSIYASI YORDAMIDA GRIPP VIRUSINI NYUKASSL VIRUSIDAN FARQLASH. TADQIQOTLAR, 79(2), 57-65.

24. Farxod o‘g‘li, A. S., & Sherali o‘g‘li, J. A. (2026). PARRANDALARDA CHECHAK KASALLIGI PROFILAKTIKASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 62(1), 274-283.

25. Olim o‘g‘li, R. S., & Umidjon Ma’mur o‘g, B. (2026). QUTURISH KASALLIGINING ALOMATLARI, TASHXISI VA OLDINI OLISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 62(1), 61-68.

26. Shokirxon o‘g, G. A. S. (2025). SOTUV UCHUN BOZORGA OLIB KELINAYOTGAN GO ‘SHT MAHSULOTLARINI EKSPERTIZA QILISH TARTIBI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 240-245.

27. Shokirxon o‘g, G. A. S. (2025). GO ‘SHT MAHSULOTLARINI EKSPERTIZADAN O ‘TKAZISH TARTIBI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 211-216.

28. Shokirxon o‘g, G. A. S. (2025). GO’SHT VA GO’SHT MAHSULOTLARIDAGI SALMONELLYOZ BAKTERIYASINI ANIQLASHDA QO’LLANILADIGAN METODLAR. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 225-231.

29. Shokirxon o‘g, G. A. S. (2025). KARTOSHKA SIFATINI ORGANOLEPTIK USULDA BAHOLASH. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 232-239.

30. Oglu, K. S. I., & Berdiyevich, D. R. (2024). DETERMINATION OF THE EFFECTIVENESS INDICATORS OF OFLOSAN AND ALISERYL WS

ANTIBIOTICS IN PREVENTING COLIBACTERIOSIS. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(12), 33-36.

31. Abdusattarov, A., Gaipova, M., Mengliev, G., Khujakhonov, S., & Amirov, A. (2024). Ways to increase the effectiveness of hyperimmune serum against colibacteriosis, salmonellosis and pasteureellosis of lambs. In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03040). EDP Sciences.

32. БУЗИЛИШЛАРИ, ЁШЖМ. "Улуқов Беҳзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идирисхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қаҳрамон қизи." ББК 72.4 А43: 33.

33. Juraqul o‘g‘li, B. S. (2026). QUTURISH KASALLIGIGA LABORATORIYADA DIAGNOZ QO ‘YISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *62*(2), 213-219.

34. Muhammadali o‘g‘li, R. R., Faxriddin o‘g‘li, B. L., & Ulug‘Bek o‘g, I. S. (2026). OTLARNING YUQUMLI ANEMIYA, AFRIKA O ‘LATI KASALLIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *62*(2), 390-399.

35. Juraqul o‘g‘li, B. S. (2026). QUTURISH KASALLIGIGA LABORATORIYADA DIAGNOZ QO ‘YISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *62*(2), 213-219.

36. Qizi, A. S. A., & Qizi, O. J. B. (2026). ASALARILARNING VIRUSLI KASALLIKLARI. *Ustozlar uchun*, *89*(1), 82-90.

37. Iskandar o‘g‘li, Q. A., & Razzoq Norbo‘ta o‘g, E. (2026). PARRANDALARNING CHECHAK KASALLIGIGA DIAGNOZ QO ‘YISH. TIMALGAN TOJGA VA PAR FOLLIKULALARIGA TAJRIBA UCHUN YUQTIRISH USULINI O'RGANISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *62*(1), 347-357.

38. Erkinjon o‘g‘li, S. J. (2026). GATR-REAKSIYASI YORDAMIDA GRIPP VIRUSINI NYUKASSL VIRUSIDAN FARQLASH. *TADQIQOTLAR*, *79*(2), 57-65.

39. Farxod o‘g‘li, A. S., & Sherali o‘g‘li, J. A. (2026). PARRANDALARDA CHECHAK KASALLIGI PROFILAKTIKASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *62*(1), 274-283.

40. Olim o‘g‘li, R. S., & Umidjon Ma’mur o‘g, B. (2026). QUTURISH KASALLIGINING ALOMATLARI, TASHXISI VA OLDINI OLISH USULLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *62*(1), 61-68.